

**XOTIN-QIZLAR MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNI
PSIXOLOGIK RAKURSDA KOMPLEKS TADQIQ ETILGANLIGI**

Maxkamova Difuza Baxtiyarovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *So‘nggi yillarda ayollarni kasbiy faoliyat bo‘yicha tadqiqotlarning o‘sishi, yangi ish uslublari va qoidalarining paydo bo‘lishi, xodimlarning rivojlanishiga qo‘yiladigan yangi talablar, ular bajaradigan vazifalar sonining bir vaqtning o‘zida ko‘payishi bilan uzviy bog‘liqdir. Mehnat faoliyatining zarur ko‘nikmalari, xodimning mobilligi va ish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish bugungi kunda asosiy KPI ko‘rsatkichlar bo‘lib turibdi.*

Kalit so‘zlar: *moslashuv, karyera, intilish, omil, talablar, xulq-atvor me‘yorlari.*

Bugungi kunda ijtimoiy muhitga moslashish psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya va inson falsafasi kabi fanlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Sotsiologiya o‘z e‘tiborini ijtimoiy harakatlarga, jamiyat tomonidan qo‘yilgan muammolarni (shu jumladan moslashish muammolarini) hal qilishdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizliklarga qaratadi. Ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladigan nizolar, oqibatlar va xatti-harakatlarni xodimga ta’sir qilish shakllarini o‘rganadi. Fiziologlarning ishlarida moslashish ichki gomeostazni saqlashga qaratilgan tananing turli funksiyalari va funksional tizimlarini qayta qurishning murakkab tizimli jarayoni sifatida tushuniladi. «Moslashish» atamasini umumiy ilmiy tushunchalar sirasiga kiritish mumkin. Bunday tushunchalar turli xil bilim sohalarining «bog‘lanish joylarida», «aloqa nuqtalarida» paydo bo‘ladi. Moslashuv konsepsiyasi uzoq va qarama-qarshi rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Uning qiyinchiligi moslashish hodisasining obyektiv murakkabligi bilan bog‘liq. Fan taraqqiyoti va ushbu toifani qo‘llash chegaralarining kengayishi munosabati bilan moslashish nazariyasining mazmuni sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda. Moslashish ta’riflari juda xilma-xil va qarama-qarshidir, turli xil ta’riflar o‘rganilayotgan hodisaning turli tomonlarini ochib berishga qaratilgan. Psixologlarni, birinchi navbatda, insonning atrof-muhit bilan haqiqiy aloqasi uning moslashuvini qanday aniqlashi, moslashuv jarayonida odam qodir bo‘lgan reaksiyalardan qaysi biri ustunlik qilishi va qaysi biri samarali bo‘lishi, qanday psixologik mexanizmlar mavjudligi, uning shaxsiy-psixologik va mafkuraviy determinantlari va inson o‘z qiyinchiliklari va muammolarini qanday yengishi bilan qiziqadi. Xotin-qizlarni mehnat faoliyatini tashkil qilish, ularni samarali darajaga olib chiqish bo‘yicha mamlakatimizda juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, M.P.Ergasheva tomonidan O‘zbekistonda xotin-qizlarni faolligini yuksaltirishda jamoatchilik fikrining o‘rni va roli mavzusida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotchi tomonidan xotin-qizlar faolligi va jamoatchilik instituti o‘rtasidagi bog‘liqlik, zamonaviy ayolning ijtimoiy portreti, xotin-qizlarni egallagan kasbi doirasida uning individul xususiyatlari o‘rganilgan. Ayolning turmush tarzi, dunyoqarashi, tafakkuri bilan mehnat faoliyati bog‘lab o‘rganilgan. Tadqiqotchi tomonidan ayollarni mehnat

20-Noyabr, 2025-yil

faoliyatiga tez moslashishi, ularni jamoa bilan ijtimoiylashuvi ta'sir qiluvchi quyidagi omillarni aniqlagan: xotin-qizlarni jamotchilik tomonidan zamonaviy ayolning ijtimoiy portretini tavsiflovchi mezonlar (o'z kasbini ustasi, salohiyatli, oilaparvar, yuksak ma'naviy fazilat sohibasi) orqali tan olinishi ularda mehnat faoliyati samarali bo'lishi; ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarni zamonamiz qahramonlari sifatida pozitiv imidjini shakllantirish ularda o'zini-o'zi ijobiy baholash va faolligini oshishi; Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xotin-qizlarni nafaqat e'tibor markazida bo'ladigan kasb egalari, balkim ishlab chiqarish va boshqa sohada faoliyat ko'rsatayotgan ayollarni ya'ni farroshlar, uy-ro'zg'or ishlari bilan band, dala ishlari bilan shug'ullanuvchi, xizmat sohasidagi ayollarni mehnat faoliyatini samarali tashkil qilish uchun jamotchilik fikrini faol pozitiv xolatga olib chiqish orqali ularni ichki resurslarini rivojlantirish mumkinligi; xotin-qizlarni zaruriy muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladigan eksperimental markazlar, davlat nazorati ostidagi biznes va konsalting xizmatlari, kovorking markazlarini faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish orqali ayollarni mehnat obyektiga munosabatini yaxshilash, hayotdan rozilik hamda bunyodkorlikka intilish tuyg'ularini shakllanishi aniqlangan; rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni sotsial mavqeyini monitoring qilib borish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotchi tomonidan xotinqizlarni ijtimoiy faolligini oshirishda tashqi omillarni rolga ko'proq e'tibor berilgan. Ularni ijtimoiy-psixologik, individual xolatlariga to'xtalib o'tilmagan.

T.K.Narbayeva tomonidan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi shakllantirish bo'yicha tadqiqot olib borilgan. Tadqiqotda xotin-qizlarni mehnat faoliyatiga jalb qilishni innovatsion modeli yatarilgan. Dissertatsiya ishida kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amalga oshirayotgan davlat siyosatida xotinqizlarni mehnatga jalb qilish, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya tizimi doirasida xotinqizlarni shaxsiy faolligini oshirish, insonni o'z-o'zini rivojlantirish, salohiyatni inson kapitaliga aylantirishga oid ilmiy yangiliklar qo'lga kiritilgan. Tadqiqotchi tomonidan xotin-qizlarni huquqiy madaniyatini shakllantirish orqali ularni mehnat tashkilotlarida ishlab ketishidagi qiyinchiliklarni oson yengib o'tishi ko'rsatib o'tilgan. T.K.Narbayeva xotin-qizlarni mehnatga jalb qilishda yakka tartibdagi tadbirkorlik, individual kasb-hunar bilan shug'ullanish, mini-klasterlarda sharoit yaratish orqali hududiy, etnomadaniy texnologiyalarni va gorizontal yondashuv mexanizmlarni ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi tomonidan xotin-qizlarni ma'naviy faolligini takomillashtirish muammolari Respublikada amalga oshirilayotgan yangicha islohotlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyat taraqqiyoti va kelgusi avlod tarbiyasi bilan uzviy bog'liqligi o'rganilgan.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarni ijtimoiy va ma'naviy hayotda faolligini oshirish quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi: 1. Xotin-qizlarni ma'naviy faolligini takomillashtirish masalasi siyosiy va ijtimoiy ahamiyati bilan umummilliy darajadagi muammo tavsifiga ega bo'lib, barcha etnik - milliy guruhlarining vakillari manfaatlari, ehtiyojlari, huquq va erkinliklariga taalluqlidir. Mazkur masala tashkiliy va mazmun jihatdan huquqiy va ijtimoiy tenglikni belgilaydi. Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari davlat yordami va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi yechimini kutayotgan muammolarini o'zida mujassamlashtiradi. 3. Xotin-qizlarni ma'naviy

20-Noyabr, 2025-yil

faolligini takomillashtirish zaruriyati, yoshlar tarbiyasiga e'tiborni oshirish muhimligi, qizlarni milliy ruhda tarbiyalashga ta'sir qiluvchi "ma'lumotlar"ni miqdor jihatdan ko'payishi bilan bog'liqdir. 4. "Oila – muqaddas" degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanishini oldini olish. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ma'naviy faolligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan faoliyat mazmuni uch yo'nalish bo'yicha amalga oshirildi: 1. Mahallalar kesimida xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ma'naviy faolligini oshirishga qaratilgan, shuningdek gender tenglik va oila masalalarida har tomonlama qo'llab-quvvatlashning normativhuquqiy bazasini takomillashtirish; 2. Sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlarning ma'naviyahloqiy va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish; 3. Oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ'ib etish orqali oilalardagi sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda mahalla faollari mas'uliyati va jamoatchilik javobgarligini oshirish, targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish.

Mahallalar kesimida xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ma'naviy faolligini oshirishga qaratilgan loyihalarini ishlab chiqishda: - xotin-qizlarning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalari uyg'unligini ta'minlash; - oilaviy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlar (qizlar) ongiga singdirish; - ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilash asosida qizlarni hayotga tayyorlash; - ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, ularning insonparvarlik g'oyalarini hayotga keng tatbiq etish bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish muhimligi ko'rsatilgan. Mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirishda: - xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta'minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish; - oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish; - xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish; - xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviyaxloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish; - xotin-qizlar yo'nalishidagi NNT faoliyatiga yordam ko'rsatish kabi omillarni inobatga olish muhimligi ta'kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Эргашева М.П. Ўзбекистонда хотин-қизлар фаоллигини юксалтиришда жамоатчилик фикрининг ўрни ва роли: Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация – Тошкент, 2020. - 142 б.
2. Доминяк В.И., Родионова Е.А. Социально-психологические особенности профессионального здоровья специалистов // Ананьевские чтения – 2013. Психология в здравоохранении: Материалы научной конференции, 22-24 октября 2013 г. / Отв. ред. О.Ю. Щелкова. – СПб.: Скифия-принт. – С. 362-364.
3. Долженкова Ю.В. Рекрутмент и адаптация персонала: современные кадровые технологии: монография / Ю.В. Долженкова, Г.Г Руденко, Акад. труда и соц. отношений. М.: АТиСО, 2014. – 183 с.
4. Нарбаева Т.К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели: Соц.фан. докт...(DSc) дисс. – Тошкент, 2020. – 239 б.
5. Гаффорова М.Қ. Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида хотин-қизлар мавқеи: Соц. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). дисс... автореф. – Тошкент, 2018. –172 б.